
Vol. 2, No. 1 (2026)
ISSN-L: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN
ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



Vol. 2, No. 1 (2026)

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdullayeva D.U. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Maxmudova D.A. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov N.A.– pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

O‘ZBEK VA QIRG‘IZ QIZLARINI ETNIK STEREOTIPLARI VA IJTIMOIY USTANOVKALARINI ILMIY TADQIQ ETISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Djuxonova Noxida Xayotjonovna
Farg‘ona davlat universiteti
Psixologiya kafedrasi dotsenti
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)
https://orcid.org/ 0000-0002-8935-4504

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek va qirg‘iz qizlarining etnik stereotiplari hamda psixologik ustanovkalarining differensial namoyon bo‘lishi asosida oilaviy hayotga tayyorlik masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda oilada muomala maromlarini o‘zlashtirish, o‘zini-o‘zi boshqarish, vaziyatni oqilona baholash hamda qiyinchiliklarga nisbatan sabr-toqatni shakllantirish omillari oilaga tayyorlikning muhim ko‘rsatkichlari sifatida yoritilgan. Shuningdek, o‘zbek va qirg‘iz qizlarining etnik stereotiplari va psixologik ustanovkalarining ifodalanishiga ko‘ra ularning ijtimoiy qadriyatlari, shaxslararo emotsional va kognitiv xulq-atvor komponentlari oilaviy hayotga tayyorlik darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari mazkur jarayonning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: etnik stereotip, ustanovka, kognitiv, ruhiy-emotsional, psixosemantik, antropologik, emotsional-ekspressiv, “go‘zallik effekti”.

Аннотация. В данной статье проанализированы вопросы подготовки к семейной жизни узбекских и кыргызских девушек на основе дифференциального проявления этнических стереотипов и психологических установок. В исследовании раскрывается значение усвоения норм семейного общения, саморегуляции, рациональной оценки ситуации и формирования терпимости к трудностям как важных факторов готовности к семье. Также научно обосновано, что социальные ценности, межличностные эмоциональные и когнитивные компоненты поведения узбекских и кыргызских девушек, обусловленные особенностями этнических стереотипов и психологических установок, оказывают существенное влияние на уровень их готовности к семейной жизни. Результаты исследования позволяют определить социально-психологические особенности данного процесса.

Ключевые слова: этнический стереотип, установка, когнитивный, эмоционально-психический, психосемантический, антропологический, эмоционально-экспрессивный, «эффект красоты».

Abstract. This article analyzes the preparation of Uzbek and Kyrgyz girls for family life based on the differential manifestation of ethnic stereotypes and psychological attitudes. The study highlights the importance of mastering communication norms within the family, self-regulation, rational assessment of situations, and the development of patience toward difficulties as significant indicators of readiness for family life. Furthermore, it is scientifically substantiated that the social values, interpersonal emotional and cognitive behavioral components of Uzbek and Kyrgyz girls, shaped by their ethnic stereotypes and psychological attitudes, significantly influence the level of preparedness for family life. The findings reveal the socio-psychological characteristics that determine this process.

Keywords: ethnic stereotype, attitude, cognitive, psycho-emotional, psychosemantic, anthropological, emotional-expressive, “beauty effect”.

KIRISH

Respublikamizda so‘nggi yillarda yoshlarni ma’naviy-psixologik jihatdan yuksaltirish, oilada qizlarning ma’naviy-axloqiy va ruhiy olamini shakllantirish hamda rivojlantirishga ulkan ahamiyat berilib, mazkur muammoning zarur huquqiy-me’yoriy asoslari yaratildi. «Oila institutini mustahkamlash bo‘yicha, eng avvalo, “Sog‘lom oila - sog‘lom jamiyat” g‘oyasini hayotga tatbiq etishga yo‘naltirilgan yagona davlat siyosatini yuritish.» hamda «Oila qanchalik mustahkam bo‘lsa, jamiyat ham shunchalik barqaror bo‘ladi» tamoyiliga asoslanib, qizlarni oilaga tayyorlash ishlarini amalga oshirish va takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borish imkoniyatlari yaratildi.

Har bir davlat oilani himoya qilish, uning barqarorligini ta’minlash uchun yetarli va zarur sharoitlarni yaratishga harakat qiladi. Buning uchun esa qonunchilikda oilaga bag‘ishlangan, uning zarurati va barqarorligini ta’minlaydigan hamda oiladagi umumbashariy qadriyatlarni saqlab qoladigan normalarni belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Nikoh va oilaning ruhiy-emotsional negizlari, qiz bolalarni nikoh va oilaga ma’nan hamda ruhan tayyorlash, shuningdek, nikoh va oilaga oid qarashlar borasida qizlarni axloq-odob me’yorlariga chaqirish haqidagi tushunchalar tarkibini takomillashtirish muhim vazifa sifatida qaraladi. Oilaviy an’ana va qadriyatlar

ahamiyatining zaiflashuvi, qizlarni oilaga tayyorlashda etnik stereotiplar va psixologik ustanovkalarning ijobiy hamda salbiy jihatlari, nikoh munosabatlarining transformatsiyasi, yosh yigit-qizlarning juda erta oila qurishi, yoshlarning nikoh munosabatlarining rasmiy talablariga nisbatan e'tiborsizligi kabi holatlarning jamiyatga ta'siri sababli ijtimoiy-psixologik mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratish dolzarblashib bormoqda.

Ijtimoiy psixologiyada "stereotip" atamasi ma'lum bir toifadagi odamlarga nisbatan haddan tashqari umumlashtirilgan e'tiqod sifatida ta'riflanadi. Stereotiplar umumlashtirilgan bo‘lib, ma'lum bir stereotip toifasidagi har bir shaxsga alohida tatbiq etiladi. Tez qaror qabul qilishda bunday umumlashtirish foydali bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, har bir shaxsga individual yondashilganda ularning noto‘g‘ri bo‘lish ehtimoli yuzaga keladi. Stereotiplar noto‘g‘ri qarashlarni rag‘batlantiradi va bir qancha sabablarga ko‘ra namoyon bo‘lishi mumkin.

Stereotipning ob'ektiv zarurati va psixologik funksiyasini tushuntirish uchun 1922-yilda fanga "ijtimoiy stereotip" tushunchasi kiritilgan [Lippman, 2004]. Ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan atrof-muhitdan olingan murakkab ma'lumotlarni soddalashtirish va tizimlashtirish asosida ijtimoiy bilish jarayonidagi stereotiplar shaxslarning ijtimoiy dunyoni barcha murakkabligi bilan talqin qilishiga xizmat qilishi ta'kidlangan. Stereotiplar faqat yuqori, aniqroq va individual tasvirlarga erishib bo‘lmaydigan hollarda qo‘llaniladi.

Ijtimoiy stereotiplar ijtimoiy toifalash deb ataladigan psixologik hodisa bilan bog‘liq. Shu sababli biz boshqa odamlarni ma'lum ijtimoiy guruhlarga ajratishga moyil bo‘lamiz. Bu sodir bo‘lganda, biz har bir kishiga individual shaxs sifatida emas, balki ko‘proq o‘z guruhining a'zosi sifatida munosabatda bo‘lishni boshlaymiz.

Har bir kishida hamkorlikdagi faoliyat jarayoni va o‘zaro ta'sirlar natijasida boshqalarni baholashda foydalaniladigan etalonlar vujudga keladi. Bu etalonlar asta-sekin shakllanib borgani sababli shaxsning o‘zi ham buni sezmay qolishi mumkin.

Mazkur stereotiplar to‘liq anglanmagan bo‘lsa ham, ba'zan ustunlikka ega bo‘lishi mumkin. Inson buni qanchalik anglaganidan qat'i nazar, atrofdagilarni ana shu stereotiplar prizmasi orqali idrok qilishda davom etaveradi.

Stereotiplarni tadqiq qilishning aksariyati etnik stereotiplarga bag‘ishlangan. Biroq, to‘plangan empirik materiallarning katta hajmiga qaramay, bir qator fundamental masalalar, jumladan, stereotiplarning haqiqiyligi muammolari hamda stereotip va xulq-atvor o‘rtasidagi munosabatlar yetarlicha hal qilinmagan. Ushbu

muammolarning hali qoniqarli darajada yechilmaganligining sabablaridan biri ijtimoiy psixologlarning uslubiy qurollanishi yetarli emasligidir.

Stereotiplarni o‘rganishda [Soldatova, 1998], ularning uchta “o‘lchami”, ya’ni mazmuni, yo‘nalganligi, umumiy maqbullik o‘lchovi va maqbullik darajasi ko‘pincha empirik tadqiqotlarga duchor bo‘ladi. Mazkur xususiyatlar bir xil tartibda emas, balki stereotipdagi asosiy kognitiv tarkib va yo‘nalishning ma’lum bir mazmunning hissiy tomoni sifatida talqin etilgan.

Jumladan, o‘zga ixtiyoriy ijtimoiy-psixologik voqeani kuzatishda bo‘lgani singari, milliy stereotiplarning barcha tuzilma tomonlarini va jihatlarini isbotlashga imkon beradigan konkret yo‘llar mavjud emas. Har bir uslubiy vosita o‘zining afzalliklari va kamchiliklariga ega. Hozirgi vaqtda ma’lum bir etnik guruh imidjining tarkibiy qismlarini miqdoriy o‘lchashga imkon beradigan psixosemantik usullarga katta e’tibor qaratilmoqda, ya’ni uni to‘g‘ri psixologik o‘rganishga yaqinlashish mumkin.

Etnik stereotiplar - ijtimoiy stereotiplarning bir turi bo‘lib, etnik guruhlar a’zolarini tavsiflovchi, ularga tegishli yoki ular bilan bog‘liq bo‘lgan xususiyatlarni ifodalaydi.

Psixologik nuqtai nazardan stereotiplashish qandaydir ijtimoiy guruh yoki etnik birlikning barcha a’zolariga moslashuv jarayonidir. Demak, etnik stereotiplar yuksak hissiyoti va barqarorligi bilan farqlanadigan turli etnik guruh vakillari to‘g‘risidagi umumiy xulosalardir. Stereotiplar tarkib topishining sababi, guruhning qadriyatlarini himoya qilishga intilish bilan birga, juda ko‘p axborotlarni “o‘zlashtirish” uchun kundalik fikrlashda “kuchni tejash” prinsipidan foydalanish zarurligidir. Milliy psixologiya elementi bo‘lmish etnik stereotiplar kundalik hamda nazariy ong darajasida shakllanadi va emotsional, ratsional, irodaviy elementlar majmuasidan iborat bo‘ladi. Etnik stereotiplarni psixologik tahlil qilish uchun ularning ichki tuzilmalarini bilish muhim ahamiyatga ega.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

So‘nggi yilliklarda ijtimoiy psixologiyada stereotiplar - bilishning oqilona shakli sifatida, ya’ni mukammal tasniflash jarayonining alohida holati sanaladi. Bu borada ijtimoiy toifalarni yaratishda ma’lum bir guruhga mansub odamlar bir-biriga o‘xshash va boshqa guruhlardan farq qiladigan xususiyatlarga e’tibor qaratish maqsadli.

Stereotiplarni tasniflashning bir necha variantlari mavjud. V.N.Panferovning fikricha, stereotiplar -antropologik, ijtimoiy, emotsional-ekspressiv kabi guruhlarga bo‘linadi.

A.A.Rean esa ijtimoiy-psixologik stereotiplarni-antropologik, etnomilliy, ijtimoiy-statusli, ijtimoiy-rolli, ekspressiv-estetik, verbal xulq-atvorli kabi guruhlarini ajratib ko‘rsatgan. Mazkur etalon-stereotiplar insonlar haqida ma’lumot kam bo‘lganda, dastlabki taassurotlar yordamida fikr yuritish kerak bo‘lib qolgan vaziyatlarda ishlab chiqiladi.

Antropologik stereotip odamning ichki va psixologik xususiyatlarini baholash uning antropologik belgilari, ya’ni tashqi ko‘rinishi bilan bog‘liq holda shakllanadi.

Etnomilliy stereotiplar kishini psixologik baholash uning irqi, millati va qaysi etnik guruhga taalluqli ekanligidan kelib chiqqan holda amalga oshirilganda namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotlardan ma’lumki, insonlarda notanish kishi haqidagi fikrlar ular mansub bo‘lgan milliy yoki etnik guruh haqidagi mavjud tasavvurlar asosida shakllanadi.

Ayniqsa, bunday stereotiplar mazkur millat haqida juda kam ma’lumotga ega insonlarda kuchliroq tarzda namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy-statusli stereotiplar kishining shaxsiy sifatlari uning ijtimoiy maqomiga mos holda baholanganda kuzatiladi. Tasavvur etilayotgan odamning sotsial statusi nechog‘lik yuqori bo‘lsa, uning nainki ruhiy, hattoi jismoniy jihatlari ham shuncha yuksak qadrlanadi.

Ijtimoiy-rolli stereotiplar shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, uni egallab turgan ijtimoiy roli va vazifalaridan kelib chiqqan holda baholanganda namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy-rolli stereotiplarning o‘ziga xos majmui mavjud.

Hozirda ijtimoiy-rolli stereotiplar mavjudligini tasdiqlovchi ko‘plab tajribalar o‘tkazilmoqda. Shunday tajribalarning birida eksperimentatorning yordamchisi tekshiriluvchilar oldiga harbiylar kiyimi va boshqa kostyumda chiqqan. Tekshiriluvchilardan uning shaxsga xos sifatlari baholanishi so‘ralganda berilgan baholarga ularning qanday kiyimda ekanliklari ta’sir qilganligi ma’lum bo‘ldi.

Ekspressiv-estetik stereotiplar shaxsga berilayotgan bahoning uning tashqi ko‘rinishi, jozibadorligi (“go‘zallik effekti”) bilan bog‘liqligidir. Baholanayotgan shaxs qanchalik jozibali bo‘lsa, berilayotgan baho shunchalik pozitiv (ijobiy) bo‘ladi. Tashqi joziba o‘z ichiga jismoniy go‘zallik, kiyinish, harakatlarning nozikligi va his-tuyg ‘ularning ifodalanishi (ekspressiya)ni ham oladi.

Verbal-xulq-atvor stereotiplari ham shaxsni baholashning tashqi xususiyatlarga - ekspressiya, nutq, mimika (yuz ifodasi), pantomimika va boshqalarga bog‘liqligida aks etadi. Biroq bu vaziyatda “jozibadorlik” unchalik muhim xususiyat emas. Ko‘pchilik kishilar “Siz insonlarning ichki dunyosini ularning tashqi ko‘rinishiga qarab baholaysizmi?” degan savolga “yo‘q” deb javob bersalar ham tajribada olingan ma’lumotlar buning aksini ko‘rsatmoqda.

A.Miller tomonidan o‘tkazilgan tajribada insonlarning uch guruhda -chiroyli, oddiy va chiroyli bo‘lmagan (xunuk xolatdagi) fotosuratlari ajratib olingan. Tekshiriluvchilardan ana shu fotosuratdagi kishilarni qanday psixologik xususiyatga ega ekanliklarini baholash so‘ralgan. Natijalarga ko‘ra, “chiroyli”larga berilgan ta’riflar - o‘ziga ishonuvchan, baxtli, samimiy, muvozanatli, g‘ayratli, topqir, ma’naviy dunyosi boy va boshqalardan iborat bo‘lgan.

Ekspressiv-estetik stereotiplar insonlar faoliyati natijasini baholashga ham o‘z ta’siri ko‘rsatar ekan. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, tashqi go‘zallik nafaqat kishiga berilayotgan bahoga, balki baholayotgan odamning xulq-atvoriga ham ta’sir etishi mumkin ekan.

Amerikalik psixologlar tomonidan yirik firmalarning birida shunday tajriba o‘tkazishgan. Yangi ishga qabul qilinayotgan xodimlar ikki bosqichli suhbatdan o‘tishgan. Birinchi suhbat o‘rtacha tashqi ko‘rinishga ega bo‘lgan, ikkinchi suhbat esa juda chiroyli xodim tomonidan olib borilgan. Har ikki suhbat bosqichi videotasmaga tushirib olingan.

Natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, ikkinchi bosqichda, ya’ni chiroyli xodim oldida nomzodlar o‘zlarini juda g‘alati tutishgan, yutuqlarini oshirib ko‘rsatishga, yaxshi taassurot qoldirishga harakat qilishgan. Buning natijasida esa jumlalarni tuzishga qiynalishgan, fikrlash tempi sustlashgan, xullas, mazkur o‘ringa da’vogar bo‘la olmasliklariga ishonib qolishgan.

Stereotip muammosi pedagogik faoliyat jarayoniga ham ta’sir etuvchi mexanizm sifatida, o‘quvchi yoki pedagog shaxsini o‘rganish jarayonida qo‘llaniladi. Uning ijtimoiy, emotsional-ekspressiv turi ko‘proq, antropologik turi esa kamroq uchraydi.

Shaxsiy pedagogik tajriba davomida har bir o‘qituvchiga nisbatan o‘ziga xos stereotiplar - “a’lochi”, ”ikkichi”, “faol” kabi tushunchalar shakllanib boradi. O‘quvchilar bilan ilk bor uchrashgan vaqtidanoq pedagog ularda mazkur sifatlar bor yoki yo‘qligini qidira boshlaydi. Albatta bu stereotiplar o‘zgarmas emas, ular sub’ektiv va individual tabiatga egadir. Har bir pedagogning tajribasiga bog‘liq

holda shakllangan o‘z stereotiplari mavjud bo‘ladi. Masalan, o‘quvchi materialni yaxshi o‘zlashtirsa, demak, u qobiliyatli, vijdonli, mas’uliyatli, intizomli; yomon o‘zlashtirsa -dangasa, diqqatini to‘play olmaydigan, mas’uliyatsiz deb idrok qilinadi.

Pedagogik muloqot jarayonida emotsional-estetik stereotiplar ham ma’lum ahamiyat kasb etishi mumkin. O‘quvchi shaxsiga xos xususiyatlarni uning tashqi ko‘rinishiga qarab baholash bir qaraganda unchalik haqiqatga mos kelmaydigandek va hayratlanarli bo‘lib tuyuladi, ammo bu holat nafaqat o‘smirlarga, hatto kichik yoshdagi bolalarga nisbatan munosabatda ham kuzatilishi mumkin ekan.

Xulosa qilganimizda bunday keng tarqalgan va yo‘naltirilgan stereotiplar ta’lim jarayonida uchrab turadi. A.A.Bodalev tomonidan olib borilgan tajribalarning birida talaba-qizlarga yetti yoshli bolalarning xatti-harakatlarini baholash so‘ralgan. Ularga “kichik aybdor”larning fotosuratlari ham qo‘shib berilgan. Bo‘lajak pedagoglar tomonidan berilgan javoblar tahlil qilinganda, ma’lum bo‘lishicha, tashqi ko‘rinishi jozibali bo‘lgan bolalarning xulq-atvori muhokama qilinganda unga nisbatan yumshoqroq, avaylab munosabatda bo‘lishgan. Britaniyalik psixolog A.Teshfel stereotiplar nafaqat shaxsning qadriyatlarini, balki uning ijtimoiy o‘ziga xosligini ham himoya qilishga qodir ekanligini ta’kidlagan [A.Teshfel 1981].

Shundan kelib chiqib, stereotipning asosiy ijtimoiy-psixologik funktsiyalari guruhlararo differentsiatsiya yoki ko‘pincha o‘z guruhi foydasiga baholovchi taqqoslash va uning yordami bilan amalga oshiriladigan ijobiy ijtimoiy o‘ziga xoslikni saqlash deb hisoblanishi kerak.

Boshqacha qilib aytganda, stereotiplarning maqsadi guruhning munosabatlarini, birinchi navbatda, boshqa guruhlar bilan emas, balki o‘z ichida o‘rnatish, uning a’zolariga tarix girdobida o‘zlarini aniqlashga imkon beradigan tasvirni yaratishdir. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy stereotiplarning “yagona vazifasi” ramziy, ammo ijtimoiy hamjamiyatning yaxlitligini ta’minlashdir[1].

Biroq, boshqa odamlar guruhlarining afzalliklari ham mavjud. Etnik ozchiliklar kabi past maqomli guruhlar jamiyatdagi nisbatan past mavqeini qabul qilishi mumkin. Bunday hollarda ular salbiy avtostereotiplarni (o‘z guruhining stereotiplari) va ijobiy geterostereotiplarni (boshqa birovning guruhining stereotiplari) rivojlantirishga moyildirlar.

A.Teshfel shuningdek stereotipning ikkita ijtimoiy funktsiyasini aniqlagan:

[1] https://psyfactor.org/lib/stereotype8.htm

1) guruhlar o‘rtasidagi mavjud munosabatlarni tushuntirish, shu jumladan murakkab va “odatda qayg‘uli” ijtimoiy hodisalarning sabablarini izlash;

2) mavjud guruhlararo munosabatlarni asoslash, masalan, boshqa odamlarning guruhlariga nisbatan sodir etilgan yoki rejalashtirilgan harakatlar.

Shunday qilib, stereotiplarning mazmuni psixologik emas, balki ijtimoiy omillar bilan belgilanadi, hukmronlik va bo‘ysunishga asoslangan guruhlararo munosabatlarning barqarorligiga hissa qo‘shadigan, stereotipning o‘zi mexanizmi emas, balki aynan salbiy stereotiplardir.

Oilashunos, psixolog olim G‘.B. Shoumarov tomonidan yaratilgan “Nikohga ma’naviy tayyorgarlik” testi aynan bizning ilmiy ishimiz mavzusiga tegishli metodikalardan biri bo‘lib, u tadqiqot ob’ektimizdagi nikoh yoshidagi o‘zbek va qirg‘iz qizlarining nikohga tayyorgarligini ko‘rsatib bera oladi. Chunki qizlarni oilaga tayyorlashda o‘ziga bo‘lgan ishonchni baholash hamda kelajakdagi bo‘lajak turmush o‘rtog‘ining xulq-atvorini o‘rganish va unga dastlabki moslashuvni boshlashi muhim omillardan biri hisoblanadi. Mazkur test orqali olingan natijalar 340 nafar o‘zbek oilasida voyaga yetgan qizlar (n=340) va 189 nafar qirg‘iz oilasida balog‘atga yetgan qizlar (n=189) ishtirokida tahlil qilindi.

Tadqiqot ishida qo‘yilgan vazifalarning o‘z tasdig‘ini topishi uchun har ikki millat vakillari bo‘lgan qizlarning fikrlari, ularning oilaviy hayotga tayyorgarligi, etnik stereotiplari va psixologik ustanovkalarida namoyon bo‘ladigan farqlar empirik jihatdan aniqlandi.

So‘rovnomaga kiritilgan savollar 5 ta shkala asosida guruhlashtirildi. Jumladan, o‘zbek va qirg‘iz qizlarining “Oilaviy hayot haqida tasavvurlarining darajasi”, “Mustahkam oila qurishda nimalarga e’tibor berish istaklari”, “Baxtli oila qurish uchun nimalarni bilish istaklari”, “Oila qurgandan so‘ng onalik mas’uliyatiga tayyor deb hisoblashlari”, “Ayol rolini bajarishga to‘laqonli tayyor deb hisoblashlari” kabi tasavvurlarining statistik tahlili amalga oshirildi. Tadqiqotda 340 nafar o‘zbek qizlari va 189 nafar qirg‘iz qizlari respondentlar guruhini tashkil etdi. 1-jadvalda natijalar keltirilgan. Tadqiqot ishida o‘zbek va qirg‘iz qizlarining yashash hududi bo‘lgan Farg‘ona va Andijon viloyatlari bo‘yicha ham farqlanishi aniqlandi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadvalda mazkur so‘rovnomadan olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, Farg‘ona va Andijon hududidagi qizlarda “Oilaviy hayot haqida tasavvurlaringiz qay darajada?” deb berilgan savolga umumiy natijalarning o‘rta arifmetik qiymatlari

o‘rtasida statistik jihatdan farq aniqlandi (t=1,28; p<0,05). Qirg‘iz millatiga mansub qizlarda esa bunday qarashlarning shakllanishiga jamiyatda milliy an’analar va oilalarda hanuzgacha eskicha urf-odatlarning davom etayotgani misol bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, “Mustahkam oila qurishda nimalarga e’tibor berishni istaysiz?” deb berilgan savolga Farg‘ona va Andijon hududidagi qizlarda umumiy natijalarning o‘rta arifmetik qiymatlari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi (t=-1,68; p<0,05). Navbatdagi “Baxtli oila qurish uchun nimalarni bilishni istaysiz?” degan savolga esa har ikki millat qizlarida umumiy natijalarning o‘rta arifmetik qiymatlari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi (t=2,54; p<0,05).

Natijalarga ko‘ra, respondentlardagi baxtli oila haqidagi tasavvurlarning boyitilishi, ya’ni “pul topishni”, “xulq-atvor qoidalari”, “xo‘jalik yuritishni”, “nizolarni bartaraf etishni” va “boshqalar” kabi variantlarning tanlanishiga qarab, ularning oldidagi vazifalarga nisbatan ushbu javoblar olindi. Bunga aynan har ikki hududda yashaydigan qizlarda oilasining baxtli bo‘lishi uchun har bir oila a’zosi xo‘jalik yuritishni bilishi, oiladagi xulq-atvor qoidalari va normalariga amal qilishi, oilada yuzaga keladigan nizolarni bartaraf etish yo‘llarini bilishi hamda oilaning iqtisodiy tomoniga o‘z hissasini qo‘shishi lozimligi aniqlandi.

1-jadval

“Qizlarning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari” so‘rovnomasining hududlar bo‘yicha natijalari

(Farg‘ona va Andijon viloyatlarining qizlari misolida)

Shkala	Hudud	O‘rtacha	Dis-persiya	n	t
Oilaviy hayot haqida tasavvurlari darajasi	F	1,93	0,45	340	1,28
	A	1,85	0,41	189	
Mustahkam oila qurishda nimalarga e’tibor berish istaklari	F	2,40	1,01	340	-1,68
	A	2,57	1,27	189	
Baxtli oila qurish uchun nimalarni bilish istaklari	F	1,99	0,53	340	-2,54*
	A	2,17	0,62	189	
Oila qurgandan so‘ng onalik ma’suliyatiga tayyor deb hisoblashlari	F	2,01	0,83	340	-0,22
	A	2,02	0,78	189	
Ayol rolini bajarishga to‘laqonli tayyor deb hisoblashlari	A	2,01	0,83	340	-0,18
	F	2,02	0,80	189	

Izoh: *p<0,05; **p<0,01;***p<0,001; F – Farg ‘ona; A - Andijon

Shuningdek, “Siz o‘zingizni oila qurgandan so‘ng onalik mas’uliyatiga tayyor deb hisoblaysizmi?” degan savolga har ikki millat qizlarida umumiy natijalarning o‘rta arifmetik qiymatlari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi ($t=-0,22$; $p<0,05$). Bunga qizlarni nikohga tayyorlashning ta’lim bilan bog‘liq tizimi mavjud emasligi, qizlarni nikohga tayyorlash jarayonining tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilmaganligi hamda qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning aniq metodikasi ishlab chiqilmaganligi sabab bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ularning asosan majburiy tarzda ishtirok etishi, aksariyat hollarda auditoriya xuddi majburlab bir joyga to‘plangandek tuyulishi va tadbirlarning yetarli darajada ta’sirchan emasligi ham muhim omillardan biridir. Bundan tashqari, bo‘lajak turmush o‘rtog‘ining oila a’zolari, ayniqsa, qaynona bilan ijobiy va ishonchli munosabatlarni o‘rnatishga hali tayyor emasliklari, qizlarga qaynonaning jamiyatda keng tarqalgan salbiy qiyofasi ta’sir qilishi hamda ularda munosabatlar psixologiyasi, oilaviy hayotdagi o‘z huquq va majburiyatlari haqidagi bilimlarning yetishmasligi bunga sabab bo‘lishi mumkin.

XULOSA

O‘zbek va qirg‘iz qizlarining oilaviy hayotni qurishi hamda ularning turmush kechirishdagi qiyinchiliklarga duch kelish ehtimolini kamaytirishda psixologik ustanovkalar va etnik stereotiplarning o‘ziga xos xususiyatlarini empirik jihatdan tadqiq etishda uslubiy yondashuv zarurligi asoslandi.

FOYDALANILDAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. - T.: Adolat, 1998. - 302 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O‘zbekiston, 2018. - 40 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-fevraldagi “2019-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4190-son qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. - 2019. - 15-fevral. - № 07/19/4190/2614.
4. Akramova F.A., Djuxonova N.X. Qizlarni oilaga tayyorlashda etnik stereotiplar va psixologik ustanovkalarini o‘rganish // So‘nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. - 2023. - T. 6. - № 12. - B. 282-291.
5. Dzhukhonova N. Studying ethnic stereotypes and psychological standards in preparing girls for a family // Science and Innovation. - 2023. - T. 2. - № B5. - B. 13-16.
6. Djuxonova N., Qovlonbekov A. Oilaviy nizolar va ularning tavsifi // Conference Zone. - 2023. - B. 289-296.

MUNDARIJA

UYUSHMAGAN YOSHLAR VA ULARNING MUAMMOLARI Atabayeva Nargis Batirovna	**4**
TURLI YOSH DAVRLARIDAGI SHAXSLARDA O‘ZINI O‘ZI FAOLLASHTIRISH VA EMOTSIONAL SOHA O‘RTASIDAGI ALOQADORLIKLAR Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o‘g‘li	**25**
O‘ZBEK VA QIRG‘IZ QIZLARINI ETNIK STEREOTIPLARI VA IJTIMOIY USTANOVKALARINI ILMIY TADQIQ ETISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI Djuxonova Noxida Xayotjonovna	**33**
ZAMONAVIY SHIFOKORLAR PROFESSIONAL KARERASIDA PSIXOLOGIK OMILLARNING TA’SIRI Arziqulov O‘tkirbek Maxammatovich	**43**
KIMYOVIY ADDIKTATSIYALARDA OILAVIY MUHITNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI Mirashirova Nargiza Anvarovna., Raxmatova Zulxumor Alimovna	**50**
TYUTORLARNING BOSHQARUV USLUBLARI VA ULARNING TA’LIM SAMARADORLIGIGA TA’SIRI Alijonov Nurbek Ulug‘bek o‘g‘li	**56**
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY TAFAKKUR RIVOJLANISHINING JINSIY XUSUSIYATLARI Rajabov Murodil Jumaboyevich., Yuldasheva Shoxista Tojialiyevna	**70**
TA’LIM MUHITIDA O‘QUVCHI SHAXSI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK USULLARI Soliyev Farxodjon Sodiqovich., Akbarova Nigora Axmadjonovna	**78**

MUNDARIJA

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB O‘QUVCHILARIDA KASBIY O‘ZINI-O‘ZI BELGILASH: MOTIVATSION VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI Mo‘minov Davronjon Marifjon o‘g‘li	**92**
O‘ZBEK VA RUS QIZLARINI OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARINI AMALIY O‘RGANILISHI Usmonova Nargiza Raximjonovna	**102**
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ Мирзажонова Элеонора Топволдиевна	**110**
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RUHIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI Z.O.Abdullayeva	**117**
HARBIY FAOLIYATDA ZAMONAVIY STRESS OMILLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI Abdumalikova Iroda Abdulaziz qizi	**125**
PSIXOLOGIK BARQARORLIK VA MOLIYAVIY STRESS MUAMMOSINING ILMIY TADQIQ ETILGANLIK DARAJASI Sotvoldiyeva Nargiza Abdukarimjon qizi	**136**
КОРРЕЛЯЦИЯ ИНФОРМАЦИОННОГО И ТЕМПЕРАМЕНТНОГО КРИТЕРИЕВ ВЕРТНОСТЕЙ В СФЕРЕ КОГНИТИВНОЙ СОЦИОНИКИ Туллекова Карина Сергеевна	**143**
TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARNING SHAKLLANISH OMILLARI VA BARTARAF ETISH YO‘LLARI Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	**157**

MUNDARIJA

MURAKKAB BICHIMDAGI USTKI KIYIMLARNI MODELLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Sattorova Ra’no Abdunazar qizi., Sindarova Shoxista Maxammatovna	**166**
O‘ZBEKISTONDA BAG‘RIKENGLIK SIYOSATINI YURITISHDA ETNOTURIZMNING O‘RNI Shavkat Bobojonov	**173**
BUXORONING OILAVIY VA JAMOAVYI MAROSIMLARI (MAHALLIY ERONIYLAR MISOLIDA) Iroda Kalonova	**177**
ELLIPTIK GAPLARNING STILISTIK MAQOMI Rasulov Zubaydullo Izomovich	**183**
PRAGMATIC AND COGNITIVE ANALYSIS OF CONCEPT “PEACE” IN POLITICAL SPEECH Rakhmatova Mehriniso Musinovna., Rakhmonova Jasmina Anvarovna	**188**
TIL EVOLYUTSIYASIDA O‘ZGARUVCHANLIK VA TEJAMKORLIK PRINSIPLARI Qobilova Nargiza Sulaymonovna	**194**
ZAMONAVIY INTERNET-MULOQOTDA LINGVOMADANIY BIRLIKLAR FENOMENI Jalolova Nigina Zavqiddin qizi	**203**

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/